

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM SOHASIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH

Mallayev Ravshan Qo'ziboyevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktab o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish sharoitida informatikaning kasbiy faoliyat strukturasi komponentariga mos keladigan maqsadga muvofiq tanlangan vazifalar metodi o'qitishning asosiy metodi to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: ixtisoslashtirilgan, kasbiy kompetentli, kasbiy sifatlar, individual, tamoyil, ta'lim mazmuni.

Аннотация. В статье представлены мысли и мнения об основном методе обучения методу целенаправленно подобранных заданий, который соответствует компонентам структуры профессиональной деятельности информатики в условиях профильного обучения школьников.

Ключевые слова: специализированный, профессионально компетентный, профессиональные качества, индивидуальный, принцип, содержание образования.

Annotation. The article presents thoughts and opinions about the main method of teaching the method of purposefully selected tasks, which corresponds to the components of the structure of the professional activity of informatics in the context of profile education of schoolchildren.

Key words: specialized, professionally competent, professional qualities, individual, principle, content of education.

Hozirgi kunda zamon talabi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunida keltirilgan "axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish kerak" edi [1].

Ixtisoslashtirilgan ta'lim/o'qitish sharoitida informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligining komponentlarini ochib berish ixtisoslashtirilgan maktab informatika o'qituvchisining kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi tegishli kompetensiyalarning tavsifi orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, biz "Informatika o'qituvchisining ixtisoslashtirilgan ta'lim/o'qitish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorligi" tushunchasini ixtisoslashtirilgan maktab informatika o'qituvchisining kasbiy vazifalarini yechish/hal qilishda kalit, bazaviy va maxsus kompetensiyalarning yaxlit/birgalikdagi majmui/to'plami sifatida talqin qilamiz.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvga ko'ra, o'qitish/ta'lim maqsadlari kompetensiyalar yig'indisi/to'plami shaklida ifodalanadi.

Maktab o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish sharoitida informatikaning kasbiy faoliyat strukturasi komponentariga mos keladigan

maqsadgamuvofiq tanlangan vazifalar metodi o'qitishning asosiy metodi sifatida tanlandi.

Shunday qilib, informatika o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasida kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish konsepsiyasi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika o'qituvchisi kasbiy faoliyatining strukturaviy komponentlariga mos keladigan maqsadga muvofiq tanlangan vazifalarni hal qilishda kalit, bazaviy va maxsus kompetentliklarni bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Bundan tashqari, taklif etilayotgan konsepsiyada oltita pedagogik qoidalar - *ta'limning kasbiy pedagogik yo'naltirilganligi tamoyillari hisobga olinadi* [2]:

1. *Fundamentallik tamoyili.* O'qituvchini informatika sohasida tayyorlash/o'qitish maktab informatika va AKT kursi doirasidan tashqariga chiqadigan amal qiladigan/samarali bilimlarni ta'minlashi va egallanayotgan kasb ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak.

2. *Binarlik tamoyili.* Umumilmiy va metodik chiziq/yo'nalishlarni birlashtirish zarur.

3. *Yetakchi g'oya tamoyili.* OTM va maktab kurslari o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish o'rganilayotgan kursning asosiy g'oyasi bo'lishi kerak.

4. *Uzluksizlik tamoyili.* O'rganilgan barcha kurslar talabaning pedagogik faoliyat elementlarini uzluksizo'rganish/bilish jarayonida ishtirok etishi zarur.

5. Universitet o'qituvchisining pedagogik faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan (YaAT) foydalanish tamoyili.

6. Ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan muntazam foydalanish tamoyili (TYaAT)

O'qitish/ta'limning kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligining barcha oltita tamoyili O'MT -o'quv maqsadlarining tizimini shakllantiruvchi/tashkil etuvchi komponenti bilan bog'liq. Boshqa komponentlarga kelsak, kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlikning barcha tamoyillarining O'MT komponentlariga ta'siri ahamiyatini pastga urmasdan, shuni ta'kidlaymizki, har bir komponent uchun kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlikning ma'lum bir tamoyil hukmron hisoblanadi: o'qitish metodlari va mazmunini tanlashda binarlik tamoyili hukmronlik qiladi; fundamentallik tamoyili, har bir komponent uchun yetakchi g'oya tamoyili va YaITdan foydalanish tamoyili o'qitish mazmunini tanlashda; uzluksizlik tamoyili - o'qitish shakllari va vositalarini tanlashda. TYaITdan foydalanish tamoyili O'MTning barcha komponentlariga ta'sir qiladi. Ko'rgazmalilik uchun hukmron ta'sir yo'nalish/chiziqlarini grafikada/rasmda ko'rsatamiz (1-rasm).



1-rasm Kasbiy-pedagogik yo 'naltirilganlik tamoyillarining O'TM komponentlariga ta'siri yo 'nalishlari/chiziqlari

Informatika o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasidagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan o'qitish/ta'lim mazmuni va xususiyatlarini o'zlashtirish strategiyasi tahlilidan kelib chiqib, biz ularni tayyorlashda birinchi va ikkinchi strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq va mumkin deb hisoblaymiz, ya'ni, mazmun va informatsion/axbort o'zaro faoliyatini refleksiv faoliyatning turli xillari bilan birgalikda qadam-baqadam o'zlashtirish [3].

Paradigmalararo refleksiya tamoyilini tavsiflashdan oldin ta'lim mazmunining quyidagi asosiy paradigmalarini (konsepsiyalarini) ko'rsatib o'tamiz [4]:

ta'lim mazmuni - o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikma yig'indisi/majmui sifatida;

ta'lim mazmuni - maktabda o'rganiladigan ilmlarning pedagogik jihatdan moslashtirilgan/adaptatsiya qilingan asoslari sifatida;

mohiyati ta'lim mazmuni insoniyatning pedagogik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi sifatida qaralishidan, strukturasi izomorfik(ya'ni o'xshash) bo'lgan (albatta hajmga ko'ra emas) butun strukturaviy to'laligi bilan inson madaniyatiga xos bo'lganligida iborat madaniyatshunoslik/kulturologik konsepsiya.

Paradigmalararo refleksiya tamoyili ta'lim mazmunini tanlash jarayonida quyidagi tamoyillardan foydalanishdan iborat:

1) ongning ochiqligi (psixologik jihatdan biz o'rganilayotgan ob'ektni tasvirlashning bir necha paradigmalarini qabul qilishga tayyormiz);

2) axborotning haqiqatini baholashsiz ko'rib chiqish;

3) kuzatuvchining paradigma jihatdan kechinishi;

4) ob'ekt tavsiflarining ko'pligining paradigmaga tegishliligi bilan solishtirilganligi;

5) ob'ekt haqidagi bilimlarning to'liqligini qayta qurish imkoniyati;
6) semiotikani paradigmalarda refleksiya metodi asbobi/vositasi sifatida ishlatish [4].

Kasbga yo'naltirilganlikni hisobga olish tamoyili: bizning tadqiqotimizda o'quv va kasbiy vazifalar to'plami orqali amalga oshiriladi, va bu vazifalarni yechish/bajarishga o'rgatish/o'qitish maktabda informatikaga profilli/ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish sohasidagi kompetentliklarni shakllantiradi.

Bunda, *kasbiy vazifa*-bu ta'lim mazmunining birligi bo'lib, "kasbiy vazifalar to'plami esa kasbiy tayyorlash/ta'lim mazmunining "yadrosini" tashkil qiladi;

kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlarini o'qitish mazmunini "ochish" mantig'ini belgilaydi" [4].

Asar mualliflari kasbiy tayyorgarlik mazmuni birligi sifatida *kasbiy vazifaning* strukturasi misol keltirishadi:

- a) *vazifaning umumlashtirilgan ifodasi;*
- b) *kalit/asosiy vazifa;*
- v) *vazifani yechish konteksti;*
- g) *yechimga (mahsulotga) olib keladigan vazifalar;*
- d) *baholash mezonlari* [5].

O'qituvchilarni kasbga tayyorlash mazmunini kasbiy vazifalar asosida qurish o'qitish/ta'lim mazmuni o'quvchi oldiga vazifani qo'yishdan ishga tushishi/ochilishini nazarda tutadi. Bu vazifa bevosita/to'g'ridan-to'g'ri ifodalash mumkin, muammo sifatida ham taqdim etilishi mumkin. Bunday holda, hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni tahsil oluvchilarning o'zlari ifodalaydilar. Tahsil oluvchilar vazifalarni ularga berilgan ma'lumotlardan o'zlari tanlashlari mumkin. Tahsil oluvchilar o'qitiladigan matnni transformatsiya qilish/o'zgartirish uchun axborotning birlamchi tahlilini o'zaro qimmatli/qadriyatli fikr almashish, shaxsiy nuqtai nazarlardan/pozitsiyalardan baholash: o'z tajribasi, qadriyat yo'nalishlari va boshqalar orqali o'tkazadilar. G'oya va konsepsiyalar tushuntirish va muhokama qilish maqsadida terminologik lug'atga kiritib qayta ishlanadi. Keyingi bosqich-amal/harakat va yechim. Ularni ta'lim mazmunining elementlari sifatida hisoblash mumkin va zarur. Ular fikr/hukm, loyiha, dastur va boshqalar shaklida shakllanadigan axborotni ifodalaydi, va bu keyingi - munozara, taqdimot, refleksiya/mulohaza bosqichiga olib keladi. Natijada, yangi ma'lumotlar massivi hosil bo'ladi va ular bilan ishlash ko'rsatilgan mantiqda amalga oshirilishi mumkin [6].

Informatika va AKTni o'rganish ob'ekti, predmeti va metodlarini o'quv va kasbiy vazifalar yig'indisi bilan birgalikda hisobga olish tamoyili. Bu vazifalar informatika o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasidagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan ta'limga asoslangan yondashuv uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Informatika o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasida, uni tashkil etishning turli darajalarida va oxir-oqibat o'quv kasbiy vazifalari to'plami orqali

o'quv jarayonini amalga oshirishda kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishga yo'naltirilgan *ta'lim mazmunining tarkibiy birligi tamoyili*. Ushbu tamoyilga muvofiq, informatika o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikni amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan ta'lim/o'qitishning mazmuni, uni dastlabki qurishda, o'qitish mazmunini hisobga olgan holda, informatika o'qituvchisi ta'limining tarkibi va strukturasi haqidagi umumiy tasavvurga OKT DTSda belgilangan bazaviy fanlar ta'limi mazmuni hisobga olgan holda qaratilishi zarur. Ushbu tamoyilning ma'no-mohiyati o'quv fanlarini qurishga yondashuvning birligini ta'minlashdir. Bunday birlikning oqibatlaridan biri bu fanlararo aloqalarni aniqlashdir [7,8].

Ta'lim mazmunining fan sohasining zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari va informatika o'qituvchisining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasidagi faoliyatining asosiy bosqichlariga mosligi/muvofiqligi tamoyili.

Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili. Ta'lim/o'qitish mazmuni, birinchi navbatda, informatikaga ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitishni amalga oshirishning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish kabi ta'lim/o'qitish maqsadining erishilishini ta'minlashi kerak.

Modullilik tamoyili ta'lim/o'qitish mazmunini modulli struktura shaklida ifodalashni nazarda tutadi, bu esa o'z navbatida *ta'lim jarayonining variativligini/o'zgaruvchanligini ta'minlaydi*.

Ochiqlik tamoyili ta'lim/o'qitish mazmuniga kelgusida axborot va ta'lim texnologiyalarining, ixtisoslashtirilgan ta'lim/o'qitish sohasida kasbiy faoliyatni takomillashtirishga yordam beradigan asboblari/vositalarni yanada rivojlantirish bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan yangi ta'lim elementlarini kiritishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, informatika o'qituvchisining ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasidagi kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishni ta'minlaydigan ta'lim/o'qitish mazmunini tanlashda ushbu tamoyillarni hisobga olish yuqorida aytib o'tilgan sohada o'qituvchilarni texnologik tayyorlash/ta'limini yaxshilashga yordam berishi kerak, bu esa, o'z navbatida, umumta'lim muassasalarida informatikaga ixtisoslashgan ta'lim/o'qitishni amalga oshirishning samaradorligini oshirishni ta'minlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Лаптев В. В., Швецкий М. В. Методическая система фундаментальной подготовки в области информатики: теория и практика многоуровневого образования. - СПб.: Изд-во СПбГУ, 2000. - 508 с.
3. Качала, В. В. Основы теории систем и системного анализа: учебное пособие для вузов. — М.: Горячая линия; Телеком, 2007. — 216 с.
4. Ахметова М. Н. Педагогические теории и системы: аспекты технологий: учебное пособие. - Чита: Изд-во ЗабГТУ им. Н.Г. Чернышевского, 1998. - Часть II. - 254 с.

5. Беспалько, В.П. Основы теории педагогических систем / В.П. Беспалько. - Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1977. - 204 с.
6. Тряпицына А.П. Педагогические основы творческой учебно-познавательной деятельности школьников. Дисс. докт. пед. наук. — Л., 1991.
7. Усманкулов Ш. У. Построение процесса обучения на основе интегративного подхода //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2020. – №. 8. – С. 133-135.
8. Бакиева З.Р. К вопросу о создании и использовании электронной системы компьютерной анимации для студентов //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 10 (69). – С. 30-31.